

Ichki Ishlar Xodimlarida Suitsidal Xulq Motivatsiyasini Korreksiyalashning Empirik Asoslari

leytenant Raximov Hamza Hakimovich¹

Annotatsiya: ushbu maqolada ichki ishlar xodimlarida suitsidal xulq motivatsiyasini korreksiyalashning empirik asoslari hamda, uning kelib chiqish sabablari ochib berilgan. Shu bilan birga ichki ishlar xodimlarida suitsidal xulqqa ta'sir qiluvchi omillar yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: kasbiy stress, suitsidal xavf, determinantlar, regressiya, ratsionalizatsiya, reaktiv tuzulma, qaysarlik, mas'uliyat, daxldorlik jihatlari.

Kirish.

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ning 2019 yil ma'lumotlariga ko'ra Avstriyada aholisiga 100 ming kishi o'z joniga qasd qilish - 24, Kanadada - 15, Daniyada - 18, Finlyandiyada - 28,4, Ispaniyada - 8,7 nafarni tashkil etadi. Ko'pgina davlatlarda millionlab insonlarning o'limiga sababchi bo'lgan suitsid va uni keltirib chiqaradigan ijtimoiy-psixologik omillarni o'rganish va bartaraf qilish bugungi kunda insoniyat oldida turgan global muammolardan biri hisoblanadi.

Dunyoda ichki ishlar xodimlari uchun har tomonlama yetuk, kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashga doir ilmiy izlanishlarga bo'lgan talab va ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Chunki, ichki ishlar organlarida faoliyat yurituvchi xodimlardagi suitsidal xulq motivatsiyasiga moyillik darajalarining aniqlanishi ushbu tizimdagi psixodiagnostik, psixoproflaktik va psixokorreksion ishlar samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ichki ishlar xodimlari faoliyatiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarning ilmiy jihatdan tadqiq qilinishi mazkur soha vakillariga psixologik xizmat ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirishni taqazo etadi.

Mamlakatimizda ichki ishlar organlarida olib borilayotgan islohotlar, aynan ushbu tizimda, mas'uliyatli, irodali va fidoyi kadrlarni yetishtirish vazifasini qo'ymoqda. Ushbu vazifaning bajaralishi ichki ishlar tizimida sog'lom psixologik muhitning yaratilishi bilan bevosita bog'liqdir.

Asosiy qism: ichki ishlar organlari xodimlari orasida suitsidal xulqning psixologik xususiyatlari muammosiga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish va tizimlashtirish maqsadida, xorij, shu jumladan Rossiya, hamda o'zbekistonlik tadqiqotchilar ishlarining nazariy tahlili bayon qilingan. Umuman suitsidal xulq tushunchasining ijtimoiy-psixologik mohiyati va uni tadqiq qilish bilan bog'liq ilmiy yondashuvlarning ilmiy-nazariy va metodolik asoslari bayon qilingan.

Binobarin, suitsidal xulq-atvor va suitsidal xavf omillari bir qator mamlakatimiz va chet el olimlari tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, A.G. Ambrumova, V.F. Voysex, E. Dyurkgeym, Yu.G. Kasperovich, K. Menninger, Z. Freyd, A.V. Boeva, D.I. Shustov, N.V. Vereshagina, A.R. Korshunovalar o'zbek olimlaridan E.G'.G'oziev, G'.B.Shoumarov, I.X.Arifxodjayeva, I.R.Ergashev, Ye.Yu.Agzamova, U.D.Qodirov, Z.R.Ibodullaev, N.A.Sog'inov, R.S.Samarov, B.M.Umarov, V.M.Karimovalarning tadqiqotlari bilan bog'liq ilmiy mushohadalar interpretatsiyasi beriladi.

Suitsidal xulq-atvor tizimidagi shaxs determinantlarini o'rganish muammosiga bagishlangan qator tadqiqotlarni, jumladan I.A. Kudryavsev, M.M. Kochenov, V.F. Yengalichev, F.S. Safuanov, I.I. Mamaychuk kabilarni alohida qayd etish mumkin .

¹ Ichki ishlar vazirligi Jazoni ijro etish departменти Oltinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi Psixologik ta'minlash guruhi katta psixologi



XIX asrning ikkinchi yarmida, inson kuchli stress xolatida o'z joniga qasd qilishi mumkin, degan fikr hukm surar edi. Fransuz psixiatri Eskirolo shu borada, psixik kasallik va o'z joniga qasd qilish o'rtasida muayyan aloqadorlik borligi haqidagi fikrni ilgari surgan. Ushbu konsepsiya tarafdorlari qatorida taniqli rus psixiatrlari I.Yu.Belyakova, A.O. Proxorov, G.I.Gordon va boshqalar nomini qayd etish lozim.

Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab har yili 1 mln odam suitsid orqali hayotdan ko'z yumadi (Jahon sog'liqni Saqlash Tashkilotining keyingi ma'lumotlariga ko'ra). Bu ko'rsatkich 100 000 aholiga o'rtacha 16 kishini tashkil qiladi. Dunyo miqiyosida suitsid bo'yicha eng oldinda borayotgan davlatlardan Rossiya (26,5), Litva (25,7) va Qozog'iston (22,8). Janubiy Koreya (20,2), Belgiya (15,7), Yaponiya (14,3), AQSh (13,7), Fransiya (12,1), Shvetsariya (11,3), Germaniya (9,1), Isroil (5,2) kabilarda muayyan darajadagi suitsidal xarakatlar tendensiyasi kuzatilmoqda. Ushbu ko'rsatkichlar har yili o'zgarib turibdi.

Depressiya holati suitsidal holatni yuzaga keltiruvchi eng asosiy psixologik buzilishlardan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, D.I.Shustov depressiyani suitsidal xulq-atvorning eng muhim komponentlari biri deb, asoslab berdi. Alohida depressiv fenomenlarning muhokama qilinishi ko'pgina ilmiy asarlarda suitsidal xulq-atvorning determinanti sifatida keltirilgan.

Shubhasiz, suitsidal tendensiyalar rivojlanishiga depressiya ta'sir etishi mumkin. A.G.Ambrumova tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda depressiv kasallarning suitsidal xulq-atvori genezisida atrof-muhit ta'siri shaxsning ijtimoiy-psixologik tuzilishi va patopsixologik belgilarning alohida inobatga olinishi ta'kidlangan.

Suitsidal xulq-atvorning tabiiy determinantlarini tadqiq etib, K. Yaspers inson organizmidagi biologik va psixologik jarayonlarga kunning vaqti, yil fasllari, ob-havo, iqlim almashishi ta'sir qiladi, deb hisoblagan.

Dunyo bo'yicha Italiya, Ispaniya, Gretsiya, Albaniya, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Norvegiya, Irlandiya davlatlarida, shuningdek ko'pchilik Afrika mamlakatlarida suitsidal holatlar kam uchraydi. Bu boradagi eng yaxshi ko'rsatkich esa arab va musulmon mamlakatlaridadir (Saudiya Arabistoni, Eron, Iroq, Bahrayn va h.k.). Ularda bu holat deyarli ko'zga tashlanmaydi.

O'zbekistonda ham suitsidlar darajasi geografik joylashishi bo'yicha farqlanadi. Masalan, G'.B. Shoumarov, U.D. Qodirov, F.F. Ganjiyevlar (2015) tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston suitsid kam tarqalgan mamlakatlar qatoriga kirsada, (bu ko'rsatkich har 100 ming aholiga 5,8 ni tashkil etadi). O'z joniga qasd qilish asosida olamdan o'tgan fuqarolar soni viloyatlarda saqlanib qolmoqda.

Butun dunyo mamlakatlarining ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy stress asoratlari muayyan chegaralardan chiqib ketamoqda. Bularga xodimlarning ishdan bo'shishi, psixik nomutanosibliklar, ichkilikka ruju qo'yish, suitsidlar, oila ajralishlarini kiritish mumkin.

Yuqoridagi ilmiy tahlillar ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida suitsidal xulq motivatsiyasi shakllanishiga muammo sifatida qarashni, uni bugungi kunda kasbiy faoliyati doirasida (ichki ishlar organlari xodimlari misolida) yanada mukammalroq tahlil qilish uchun o'ziga xos empirik ma'lumotlarga asoslangan tahlillar zarurligini taqozo etadi. Umuman olganda, suitsid, suitsidal omillarga nisbatan tarixda va bugungi kunda turli xil munozarali fikrlar mavjud bo'lib, bu qarashlar turli manbalarda, jumladan, Sharq va G'arb mutafakkirlari ijodida, diniy ta'limotlarda, ilg'or psixologiya vakillarining ilmiy asarlarida o'z ifodasini topgan. Shuningdek, suitsid muammosi psixologiyada o'zining muayyan nazariy-metodologik bazasiga ega bo'lsa-da, ushbu muammoga daxldor tadqiqotlar miqdori taqchilligicha qolmoqda.

Umuman, o'rganilgan adabiyotlar tahlili muammoning muayyan nazariy va metodologik asoslari haqida tegishli ma'lumotlarni bayon etadi.

Ayni paytda, suitsidal xulq motivatsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini belgilash va ularning har birini chuqur o'rganish uchun tegishli usullarni tanlash va saralashga to'g'ri keldi. Unga



ko'ra, ko'p yillik tajribalarimiz va tegishli ilmiy adabiyotlar ustida olib borilgan tahlillarimizga asoslanib, suitsidal xulqning psixologik xususiyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan maxsus metodikalar va ichki ishlar organlari xodimlari orasida suitsidal xulqqa moyillikning namoyon etilishini tadqiq qilish bilan bog'liq uslub belgilandi.

1-jadval "Depressiya darajasi va psixologik himoya mexanizmi orasidagi korrelyatsion bog'lanish natijalari (Safdor xodimlar misolida)n=100

No	Mezonlar	Ahamiyatsiz depressiya	Engil ruxiy tushkunlik	O'rtacha depressiya	Og'ir ruxiy tushkunlik	Inkor etish	Siqib chiqarish	Regressiya	Kompensatsiya	Proeksiya	O'rin almashtirish	Ratsionalizatsiya	Reaktiv tuzulma
1	Ahamiyatsiz depressiya	1	,230*	-062	-,082	,026	,084	,018	-,205*	-055	,107	-312**	-,167
2	Yngil ruxiy tushkunlik	,230*	1	-014	-,105	,040	,124	,067	-,078	,090	-077	-051	-,085
3	O'rtacha depressiya	-,062	-,014	1	,048	,175	-,023	-,058	,026	-009	,026	,054	,095
4	Og'ir ruxiy tushkunlik	-,082	-,105	,048	1	,040	-,024	-,022	,049	-134	,254*	,030	,219*
5	Inkor etish	,026	,040	,175	,040	1	,326**	,125	-,202*	-107	-155	,031	-,024
6	Siqib chiqarish	,084	,124	-,023	-,024	,326**	1	,133	-,177	-087	,086	-039	-,097
7	Regressiya	,018	,067	-,058	-,022	,125	,133	1	,007	-042	,153	,026	-,026
8	Kompensatsiya	-,205*	-,078	,026	,049	-,202*	-,177	,007	1	-,248*	,310**	,135	,088
9	Proeksiya	-,055	,090	-,009	-,134	-,107	-,087	-,042	-,248*	1	-,407**	,164	,141
10	O'rin almashtirish	,107	-,077	,026	,254*	-,155	,086	,153	,310**	-,407**	1	-,087	-,050
11	Ratsionalizatsiya	-312**	-,051	,054	,030	,031	-,039	,026	,135	,164	-,087	1	,107
12	Reaktiv tuzulma	-,167	-,085	,095	,219*	-,024	-,097	-,026	,088	,141	-,050	,107	1

Binobarin, Kellerman-Plutchikning "Psixologik himoya mexanizmlarini diagnostika qilish so'rovnomasi" T.N.Razuvaevaning "Suitsidal xavf so'rovnomasi", V.Zunganing "Depressiv holatlarni defferensial diagnostika qilish metodikasi" va uning mosligi xam aloxida mezonlar asosida tahlil qilindi.

Shuningdek, ob'ekt sifatida belgilangan ichki ishlar organlari xodimlari (safdor xodimlar, kichik va katta ofitserlar) orasida sodir qilinadigan suitsidal holatlarni diagnostika qilishga qaratilgan metodlar orqali aniqlangan mezonlar o'rtasidagi o'zaro korrelyatsiya tahlillari amalga oshirildi (1-jadvalga qaralsin).

Mazkur jadvalda ichki ishlar idoralarida faoliyat yurituvchi safdor xodimlar misolida V.A.Jmurovning "Depressiya darajasini aniklash metodikasi" va Klerman-Plutchukning "Psixologik himoya mexanizmi" metodlari orasidagi korrelyatsion bog'liqlik natijalari qayd qilindi. Jumladan, ushbu tahlillarda metodika mezonlari orasidagi musbat va manfiy korrelyatsiyani kuzatish mumkin. Qo'shimcha usullar orqali xodimlarni o'rganganimizda, safdor xodimlarning ruhiy tushkunlik holatlarida ongsiz ravishda psixologik ximoya mexanizmlarini chaqirilishi ham kuzatildi. Jumladan, xodimlar orasida ruhiy tushkunlik holatining yuzaga kelishi ulardagi kompetensiya, ratsionalizatsiya himoya mexanizmlarini chaqirilishini namoyon qildi.

Ikkinchi jadvalda qayd etilgan natijalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan: kichik ofitserlarning natijalarida safdor xodimlarning natijalariga nisbatan sezilarli darajadagi farqlar kuzatildi. Ya'ni, kichik ofitserlarda safdor xodimlarga nisbatan ruhiy tushkun holatlar kamroq



kuzatildi. Demak, kichik ofitserlar aksariyat holatlarda yuzaga keladigan kasbiy, shaxsiy faoliyatdagi ruhiy vaziyatlarga ob'ektiv jihatdan munosabat ko'rsatar ekanlar (2-jadvalga qaralsin).

Demak, ichki ishlar tizimidagi xodimlarning psixologik himoya mexanizmlari lavozim, mas'uliyat, daxldorlik jihatlari bilan ham bog'liq bo'lar ekan. Ya'ni, safdor xodimlarga nisbatan ofitserlarda ruhiy tushkunlik holatlari ko'proq uchasada, ulardagi psixologik himoya mexanizmlari aksariyat hollarda kasbiy mas'uliyat va kompetentlik talablari asosida shakllanar ekan.

O'rganish davomida, ichki ishlar organlari xodimlarida suitsidga moyillik sabablarini aniqlashga qaratilgan qo'shimcha kontent tahlil usullaridan ham foydalanildi. Bunda ichki ishlar organlari xodimlarining ko'p marotaba takrorlangan javoblari alohida tadqiq qilindi. Bu esa mazkur tizim xodimlarida suitsidni keltirib chiqaruvchi omillarni tahlil qilishni taqozo etadi.

2-jadval “Depressiya darajasi bilan “Psixologik himoya mexanizmi” metodi natijalari orasidagi korrelyatsion bog'liqlik ko'rsatkichlari (kichik ofitserlar misolida)n=100

No		Ahamiyatsiz depressiya	Engil ruxiy tushkunlik	O'rtacha depressiya	Og'ir ruxiy tushkunlik	Inkor etish	Siqib chiqarish	Regressiya	Kompensatsiya	Proeksiya	O'rin almashtirish	Ratsionalizatsiya	Reaktiv tuzulma
1	Ahamiyatsiz depressiya	1	-,154	-263**	-,187	-,064	,126	-,178	,150	-,039	-,007	-,126	-,188
2	Engil ruxiy tushkunlik	-,154	1	,024	,006	-,071	-,182	,140	-,105	-,024	-,122	-,027	-,022
3	O'rtacha depressiya	-263**	,024	1	,007	-,004	-,017	,052	-,023	-,096	,074	,077	-,015
4	Og'ir ruxiy tushkunlik	-,187	,006	,007	1	-,023	-,092	-,016	,070	-,010	,092	,041	,029
5	Inkor etish	-,064	-,071	-,004	-,023	1	,335**	,011	,064	,073	,040	,077	,192
6	Siqib chiqarish	,126	-,182	-,017	-,092	,335**	1	-,076	,439**	-,122	,202*	-,274**	-,001
7	Regressiya	-,178	,140	,052	-,016	,011	-,076	1	,119	-,229*	,122	-,102	-,184
8	Kompensatsiya	,150	-,105	-,023	,070	,064	,439**	,119	1	-,248*	,424**	-,358**	,027
9	Proeksiya	-,039	-,024	-,096	-,010	,073	-,122	-,229*	-,248*	1	-,352**	,215*	,208*
10	O'rin almashtirish	-,007	-,122	,074	,092	,040	,202*	,122	,424**	-,352**	1	-,252*	,200*
11	Ratsionalizatsiya	-,126	-,027	,077	,041	,077	-,274**	-,102	-,358**	,215*	-,252*	1	,118
12	Reaktiv tuzulma	-,188	-,022	-,015	,029	,192	-,001	-,184	,027	,208*	,200*	,118	1

Qo'lga kiritilgan ma'lumotlarning empirik interpretatsiyasidan kelib chiqib, shuni ta'kidlash lozimki, ichki ishlar xodimlari orasida suitsidal xulqning ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq qilish muammosini maxsus o'rganishga bag'ishlangan metodikalar, kontent – tahlillar, anketa savollari, testlar va qo'shimcha usullar majmuasining qo'llanilishi amaliy-tatbiqiy vazifalarini kengroq ko'lamda ochib berish imkonini yaratdi.

Demak, yuqoridagi tahlillarimiz u yoki bu darajada namoyon etilishi mumkin bo'lgan suitsidal holatlarni empirik jihatdan o'rganish natijalari bo'lib, unda ichki ishlar xodimlari faoliyatida uchrab



turgan suitsidal xulq-atvorga daxldor tafsilotlarni o‘z ichiga olganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

XULOSA.

Ichki ishlar idoralari xodimlari orasida suitsidal xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganishda xodimlarning ichki hissiy kechinmalari, shaxslilik xususiyatlari, o‘ziga xos psixologik himoya mexanizmlari, muayyan darajadagi depressivlik holatlari bilan bog‘liq psixologik omillarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki ishlar xodimlarining yoshi va toifalari oshgan sari ulardagi kompensatsiya psixologik himoya mexanizmlari ham ortib borar ekan. Bu mexanizm ongli ravishda ishlatiladi, shuning uchun ham yosh oshishida aqlning o‘sishi natijasida yetmayotgan narsalarni boshqa holatlardan undirishga intilish kuzatilishi mumkin ekan. Ichki ishlar organlari xodimlari orasida sodir qilinadigan suitsidal holatlar ish (xizmat) davriga nisbatan ish (xizmat) davridan keyingi holatlarda sodir qilinishi bilan bog‘liq bir qator ishonchli farqlar kuzatildi, ya‘ni suitsidal holatlarni sodir etishda kasbiy omilga nisbatan shaxsiy omillar asosida moyillikning namoyon etilishi birmuncha yuqoriroq darajada ekanligi yaqqol namoyon etildi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент: “Ўзбекистан” НМИУ, 2016, - 56 б.
2. Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 2017 йил 31 декабрь кундаги 292-сонли “Психологик хизмат кўрсатиш ва полиграф аппаратида фойдаланиш тўғрисида”ги буйруғи. – Тошкент, 2017. - 16 б.
3. Баротов Ш.Р. Социально-психологические и научно-практические основы создания. Автореф. дисс. психол. наук. – Т., 1999. – 37 с.
4. F.F. Ganjiev. The basis of social and psychological adaptation of children in the conditions of preschool education. Bulletin of integrative psychology. Journal for psychologists, 59-64.

Интернет ресурслари

1. <https://iiv.uz/>
2. <https://stat.uz/uz/>
3. buxstat.uz/uz/

